


PEDAGOGIK MAHORAT

5
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2024-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024, № 5

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro'ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No'monjonovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

21.	QAHHOROV Siddiq Qahhorovich, BEKMURODOVA Manzura Bahodirovna	The issue of teaching the equations of motion and heat exchange	120
22.	RASHIDOV Anvarjon Sharipovich, FAXRIDINOVA Mehribon Faxridin qizi	Matematika darslarida ekub va ekuklarning o'ziga xos xususiyatlari	127
23.	MUSTAFOYEV O'tkirjon Rustamovich	10 – sinf fizika darslarida o'quvchilarni faollashtirishida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	134
24.	MUZAFFAROVA Mohinur Umarovna	Oddiy differensial tenglamalar fanini o'qitishda interfaol usullarning ahamiyati va samaradorligi	138
25.	NOMOZOV Nurbek Baxtiyor o'g'li	Sun'iy intellekt imkoniyatlari asosida informatika fanini o'qitish metodikasi	147
26.	SODIQOV Behzod Baxriddin o'g'li	Kimyo o'qitish metodikasi fanini o'qitishda pisadan foydalanish va pisa xalqaro dasturi orqali baholash	152
27.	UBAYDULLOYEV Alisher Nematilloevich, TEMIROV Miraziz Sayfullo o'g'li,	Akademik litsey o'quvchilariga ko'phad va uning ildizlarini qulay usullar bilan topish yo'llarini o'rgatish	158
28.	BAYCHAYEV Fazliddin Xusenovich	Kon-metallurgiya sanoatiga oid fizikadan kasbiy yo'naltirilgan masalalar	163
29.	KOMILOVA Shahrizoda Rahmatullo qizi	Internet texnologiyalari yordamida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish usullari (Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida)	167
30.	АТООБА Меҳринисо Фарҳодовна	Физикани ўқитишда интерфаол методларнинг роли	172
31.	ERNAZAROV Abror Jumaqulovich	Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishning zaruriy shartlari	176
32.	PROTASOV Yorkinjon Yokubjon o'g'li	Methodology of drawing different shapes in the scratch programming system	184
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
33.	SALIXOV Shoxrux Mansurovich	Bo'lajak jismoniy madaniyat fani o'qituvchilarining kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
34.	АФРАИМОВ Алихан Акмалович	Спортчининг чидамлилик даражаси ва самарали машғулотларини автоматик тартибга солиш динамикаси масалалари	193
35.	NURULLAYEV Abduhamid Ro'zimboyevich, MANSUROV Sherzod Shuxratovich	Jismoniy tarbiya darslarida harakatlarga o'rgatish uslublari va tamoyillari	197
36.	ABDUYEVA Sitorabonu Savriddin qizi	18-21 yoshli talaba gandbolchi qizlarni tayyorlashning asosiy jihatlari	201
37.	BOLTABOYEV Xamidullo Xabibullayevich	Talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati	206

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Salixov Shoxrux Mansurovich,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0001-7520-6498>
salikhovshoxrux@gmail.com

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga mamlakatimizda yurtboshimiz tomonlaridan qaratilayotgan katta e'tibor, oldinda turgan katta musobaqalar oldidan belgilab berilgan kamchiliklarni o'rganish hamda mazkur faoliyat jarayonida maxsus mexanizm ishlashi muhimligi o'rganilgan. Bundan tashqari oldinda turgan "Parij-2024" olimpiadasiga tayyorgarlik bosqichining kamchiliklari Yangi O'zbekistonda sportga qaratilayotgan e'tibor, mazkur sohaning davlat siyosati darajasida ekanligi muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning sog'lom turmush tarzi uchun muhimligi va bu mexanizmni davlatimiz tomonidan to'liq shart sharoitlar yaratib berilib har bir yosh uchun kerakli e'tiborning mavjudligi juda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sport faoliyati, Jismoniy tarbiya, Raqamli texnologiyalar, Innovatsiyalar, Olimpiya o'yinlari, Yosh davrlari, Mexanizmlar, Kompetesiyalar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

В данной статье изучается большое внимание, уделяемое Президентом нашей страны физкультурно-спортивной деятельности, изучение недостатков, выявленных перед предстоящими большими соревнованиями, а также значение работы специального механизма в процессе этой деятельности. Кроме того, отмечены недостатки этапа подготовки к предстоящим Олимпийским играм Париж-2024. Очень важно, что здоровая физическая культура важна для здорового образа жизни и что этому механизму в нашем государстве уделяется необходимое внимание каждой возрастной группе.

Ключевые слова: спортивная деятельность, Физкультура, Цифровые технологии, Инновации, Олимпийские игры, Молодежный период, Механизмы, Компетенция

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMATION OF FUTURE PROFESSIONAL SKILLS PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

This article examines the great attention paid by the President of our country to physical culture and sports activities, the study of shortcomings identified before the upcoming big competitions, as well as the importance of the work of a special mechanism in the process of this activity. In addition, shortcomings in the preparation phase for the upcoming Olympic Games Paris 2024 were noted. It is very important that healthy physical education is important for a healthy lifestyle and that this mechanism in our state is given the necessary attention to each age group.

Keywords: sports activity, Physical education, Digital technologies, Innovation, Olympic games, Youth period, Mechanisms, Competence

Kirish. O'zbekistonda sportni rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalari yosh avlodni sog'lom voyaga yetkazish, xalq o'yinlari va sport turlarini jahon miqyosida rag'batlantirish va rivojlantirish, aholining eng keng qatlamlarini jismoniy tarbiya harakatiga faol jalb etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya va sport jamoat

birlashmalarini tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport birlashmalarini tuzish, jismoniy tarbiya va sport birlashmalarini tashkil etishda ishtirok etish huquqiga ega. Jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan buyon yozgi Olimpiya va qishki Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatlar ortib bormoqda. O'zbekiston yozgi Olimpiya o'yinlarida to'rt marotaba ishtirok etib, boks bo'yicha bitta oltin va beshta bronza, kurash bo'yicha ikkita oltin va ikkita kumush, dzyudo bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritdi. O'zbekistonning Qishki Olimpiya o'yinlaridagi yagona medali 1994-yilda chang'i yugurish bo'yicha oltin medal edi. 2016-yilgi Rio Olimpiadasida Ruslan Nurudinov og'ir atletika bo'yicha erkaklar o'rtasida 105 kilogramm vazn toifasida jami 431 kilogramm, siltab ko'tarishda 237 kilogramm tosh ko'tarib, Olimpiya rekordini qo'lga kiritdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan katta e'tiborlari jismoniy madaniyat va sportni aholi turmush tarzini bir qismiga aylantish, shaxs manfaatlariga xizmat qilishi, jismoniy tarbiya uchun asosiy shartlardan biri bo'lgan ommaviylik va qulaylikni ta'minlash, har qanday sport bilan shug'ullanishni maqsad qilgan davlat deb shakllantirilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari yoki sport murabbiylari uchun raqamli texnologiyalarning ahamiyati 2020-yil boshlaridan juda katta ahamiyat kasb eta boshladi. Butun dunyoda pandemiya holatida barcha soha egalari kabi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham masofaviy ish olib borishlari raqamli texnologiyalar, kompyuter savodxonligi kabi muhim sohalarda o'z bilim ko'nikmalarini sinab ko'rishdi. Ayniqsa, butun dunyoda bunday og'ir vaziyatda yuzaga kelgan psixologik zo'riqishlar girdobida o'quvchi yoshlarni innovatsion texnologiyalar yordamida dars jarayonlariga qiziqitira olish, nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarining ham o'z ruhiy holatini stabil ushlab tura olishi juda muhim edi. Albatta, raqamli texnologiyalar yoki innovatsiyalar deganda doim ijobiy ta'sir jarayonlarini emas, balki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham o'rganib o'tishimiz juda muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yoshlarning hamkorlikda o'rganish va ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi rivojlangan texnologiyalar davrida har bir yosh avlodning mazkur sohaga qiziqishi juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror rivojlanishida asosiy e'tibor innovatsion-zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishida desak, mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga joriy etilishi natijalarning o'sishiga olib kelishi hamda yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarning tajribalariga qaraganda, milliy sport va jismoniy tarbiya taqdirlari haqida davlat tomonidan g'amxo'rlik qilinishi har shubhasiz juda katta foyda keltirmoqda. Ijtimoiy sohadagi ushbu moddalarni qo'llab-quvvatlashda, birinchi navbatda, o'smir bolalarni va jamiyatning yo'sh muhitini ruhiy-jismoniy sog'lomlashtirish maqsadida barcha qulay sharoitlarni yaratmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalish rivoji bo'yicha uning yuksak ahamiyatini tushunadigan mamlakatlar qatoridan joy egallash sportni har bir sohasini rivojlantirish yo'lida katta va salmoqli ishlar bajarib kelinmoqda. Mamlakatning hukumat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va sport muassasalari sport va jismoniy tarbiya sohasida moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ommaviylikka erishish, professional sportni kuchaytirish kabi muhim muammolarni har doim birgalikda yechishda hamjihat faoliyat olib bormoqda.

Olimpiya o'yinlari turkumiga kiruvchi sport turlariga alohida e'tobor bo'yicha terma jamoalar oliy sport ta'lim muassasalarida tayyorlanmoqda. Bu sport dargohlarida oliy toifali sportchilar yuqori malakali mutahassislar tayyorlanmoqda. Mazkur maktablar qoshidagi Olimpiyaga tayyorlov markazlarida istiqboli porloq va iqtidorli atletlar shug'ullanmoqdalar. Eng avvalo, har bir sport turiga bir xil e'tibor qaratilayotgani ularning tayyorgarligini tashkillashtirish maqsadida o'quv-metodik bazalarining shakllantrilayotgani nafaqat yuqori natijalarga yo'naltirilgan sport faoliyatini balki sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning ham jadallik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Yangi O'zbekiston sportchilarining yuqori cho'qqilarga erishishi bayrog'imizni xalqaro maydonlarda obro'sini mustahkamlashda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, shubhasiz, juda katta ahamiyat kasb etadi. Nufuzli anjumanlarda milliy bayrog'imizni himoya qiluvchi yoshlar maxsus yakka va o'yin sport turlarining professionallari o'z tayyorgarliklarini va mahoratlarini namoyish etib mamlakatimizning boy sport ana'nalariga egaligini namoyon etmoqdalar va tasdiqlamoqdalar.

Asosiy qism. O'zbekistonda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur

shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan har bir sport turiga yo'naltirilgan sport o'quv metodik bazalarini har tomonlama ilg'or innovatsion tizimlar bilan ta'minlash 2024-yilda bo'lib o'tadigan olimpiya o'yinlariga tayyorgarlikni yanada yuqori cho'qqiga chiqarish to'g'risidagi topshiriqlari, hamda sportchilarimiz tomonidan qo'lga kiritilayotgan olimpiya o'yinlari yo'llanmalarining belgilangan rejadagidan kamligi yurtboshimiz tomonlaridan yanada kattaroq kuch bilan yondashish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi. Ayniqsa, jamoaviy sport turlaridagi natijalarning pastligi, katta musobalarda ko'rsatilayotgan natijalarning asosiy qismi yakkakurash sport turlariga to'g'ri kelayotgani ham yurtboshimizning tomonlaridan qo'shimcha ushbu yo'nalishda qaratilishi lozim bo'lgan e'tibor chora-tadbirlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Har bir sport turiga yo'naltirilgan o'quv-metodik bazalarning ish faoliyatini yanada shakllantirish, innovatsion texnologik tizimlar yordamida nafaqat yakka kurash, balki jamoaviy sport turlari vakillarini ham ushbu bosqichdagi tayyorgarlik tizimlarini belgilab olish juda muhim hisoblanadi.

Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selektsiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish maqsadida Prezidentimiz tomonlaridan jismoniy tarbiya va sport sohasini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

Davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarining sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish;

Joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selektsiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

Aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida "umumta'lim maktab sporti" festivali, "jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa" ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich (tuman/shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominasiyasini joriy etish;

Aholining barcha qatlamlari o'rtasida "jismoniy tayyorgarlik darajasi" sinovlarini o'tkazishni joriy etish;

Sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sport sohasida samarali tibbiy va farmakologik ta'minotni yo'lga qo'yish;

Sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmini joriy etish;

Mazkur chora tadbirlar asosida, eng avvalo, sport faoliyatidagi natijalarning yuqoriligini ta'minlash, har bir sport turi bo'yicha doimiy natijalarni yaxshilab borish, nafaqat yuqori natijalarga yo'naltirilgan sport faoliyati, balki sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyani ham doimiy aholining kun tartibiga aylantirish sog'lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug'ullanish uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish kabi vazifalar belgilab berilgan. Yuqori natijalarga erishish uchun nafaqat murabbiylarning o'zi bilan, balki sport faoliyatini ilmiylikni ta'minlar, professor olimlar hamda sport murabbiy va menejerlarining hamkorlikda ishlash mexanizmlarini belgilab olish ham hozirgi davr sport faoliyati uchun muhim komponentlardan biri bo'lib qolmoqda. Sport sohasida rivojlangan davlatlar tajribalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barcha sport faoliyatlari, albatta, ilmiylik jihatidan ham o'rganilib tadqiq qilib borilayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunda innovatsion texnologik tizimlar asosiy mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa va mulohazalar. “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qarorlarida O‘zbekiston sportchilarini tayyorlashning ustivor vazifalari belgilandi.

- Sport ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish va raqamlashtirish, olimpiya va paralimpiya dasturlariga kiritilgan sport turlari bo‘yicha yuqori natijador va olimpiya sportchilar zaxirasini yaratish, litsenziyalar sonini sezilarli darajada ko‘paytirish;

- Sport menejmentini takomillashtirish, har bir bo‘g‘inni auditdan o‘tkazish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

- Sport farmakologiyasi, psixologiyasi, tibbiyoti, diyetologiyasini chuqur tahlil qilish va o‘rganish, ular natijasida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

- Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun talabgorlar orasida ayol sportchilar ulushini oshirish, O‘zbekiston sportchilari o‘rtasida gender tenglikni ta‘minlash;

- Sport bazalari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy standartlarga javob beradigan yangi sport obyektlarini barpo etish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish;

- Mamlakatimizda belgilab berilgan paralimpiya harakatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini amaliyotga to‘liq tatbiq etish, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.

To‘rt yillikning eng nufuzli tadbirida sportchilarimiz tomonidan har bir sport turida eng yuqori natijalarni qo‘lga kiritish, Prezidentimiz tomonlaridan nafaqat yakka kurash sport turlarida, balki jamoaviy sport turlarida ham eng yuqori natijalarni egallash vazifasi qo‘yildi. Mazkur olimpiya o‘yinlarida tariximdagi Yangi O‘zbekistonning eng katta natijasiga erishish aniq belgilandi. Eng asosiysi har bir sport maktabi qoshidagi o‘quv-metodik bazalarda laboratoriyalarda sportchilarni har tomonlama yetuk mutaxassislar tomonidan tayyorlanishi, jismoniy psixologik tayyorgarliklari nazoratda ushlab juda muhim komponentlardan biri hisoblanadi.

Bosh vazir o‘rinbosari – turizm va sport vaziri A. Abduhakimov va O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi raisi R. Shoabdurahmanov, sport federatsiya (assotsiatsiya) lari bilan birgalikda 2024-yildagi Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida quyidagilarni vazifalar alohida belgilab berildi.

- ikki oy muddatda aholi o‘rtasida gender tenglik tamoyillarini “mahallabay” tizimi asosida taniqli sportchilar ishtirokida targ‘ib qilish dasturini ishlab chiqsin va amalga oshirsin;

- Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun talabgorlar o‘rtasida ayol sportchilar ulushini oshirish choralarini ko‘rsin. Bunda, ularning erkak sportchilar sonidan farqi +/-3 foizgacha bo‘lishini ta‘minlasin;

- 2022-2023-yilgi o‘quv yilidan boshlab olimpiya zaxiralari sportchilarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan sport-ta‘lim muassasalarida ayollar uchun qabul kvotalarini oshirish choralarini ko‘rsin;

- mamlakatimiz sportchilarini tayyorlashda gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Har bir sport federatsiyasi oldida turgan yana bir ustivor vazifalaridan bir mazkur olimpiya o‘yinlariga maksimal darajada yo‘llanmalarni qo‘lga kiritish. Davlatimiz tomonidan yaratib berilgan barcha sharoitlardan to‘liq foydalanish hamda eng yuqori marralarni ko‘zlash bizning oldimizda turgan eng katta vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni
3. Schwarzer R. Stress, Resources, and Proactive Coping / R. Schwarzer // Applied Psychology: An International Review. - 2001. - № 50(3). - P. 400- 407
4. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
5. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies //European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-111.